SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 4
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASHDA O‘QITUVCHI MULOQOTINI SHAKLLANTIRISH

Bunyodjon Marasulov Sharipovich

Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

Tojiddinova Ozodaxon Odiljon qizi

Pedagogika fakulteti boshlang‘ich
Ta’lim yo‘nalishi talabasi
Tel:(94) 0611304

Annotatsiya
Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchi muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati va pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, muloqot uslublari hamda samarali aloqa o‘rnatish mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolaning maqsadi — ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda o‘qituvchi nutqi va muloqot mahoratining o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar
pedagogik muloqot, tarbiya, muloqot madaniyati, o‘qituvchi kompetensiyasi, hamkorlik pedagogikasi, muloqot uslublari, nutq mahorati, ta’lim samaradorligi.

Аннотация
В данной статье рассматриваются социально-педагогическая необходимость формирования культуры общения учителя в воспитании гармонично развитого поколения и специфические особенности педагогического общения. Анализируются взаимодействие между учителем и учащимся в воспитательном процессе, стили общения и механизмы установления эффективной коммуникации. Цель статьи — показать роль речи и коммуникативных навыков учителя в повышении эффективности обучения и воспитания.

Ключевые слова
педагогическое общение, воспитание, культура общения, компетенция учителя, педагогика сотрудничества, стили общения, речевое мастерство, эффективность образования.

Abstract
This article highlights the socio-pedagogical necessity of forming a teacher's communication culture in upbringing a harmoniously developed generation, as well as the specific characteristics of pedagogical communication. The interaction between teacher and student in the educational process, communication styles, and mechanisms for establishing effective contact are analyzed. The purpose of the article is to demonstrate the role of the teacher's speech and communication skills in enhancing the effectiveness of education and upbringing.
Keywords
pedagogical communication, upbringing, culture of communication, teacher competence, pedagogy of cooperation, communication styles, speech mastery, educational efficiency.

Kirish

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va mamlakatda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqdi. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi uning yosh avlodi qanday tarbiya topayotgani va ularga ta’lim berayotgan pedagoglarning kasbiy salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ustozni e’zozlash – bir kasb egasini emas, butun bir millat kelajagini e’zozlash deganidir”.[1]. Ushbu konseptual yondashuv zamonaviy pedagoglarning zimmasiga nafaqat bilim berish, balki yuksak ma’naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni shakllantirish vazifasini ham yuklaydi.

Xususan, boshlang‘ich ta’lim shaxs kamolotining tamal toshi hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o‘z hayotida ilk bor oila muhitidan chiqib, ijtimoiy muhitga — maktab jamoasiga qadam qo‘yadilar. Ushbu nozik va mas’uliyatli davrda bola shaxsining shakllanishi, uning fanga bo‘lgan qiziqishi hamda jamiyatga moslashishi bevosita boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muloqot madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Prezidentimiz o‘z nutqlarida ta’lim samaradorligining asosiy omillariga to‘xtalib, shunday deydi: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir” [2]. Boshlang‘ich sinflarda bu kuch aynan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv va samimiy pedagogik muloqot orqali namoyon bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muloqot kompetensiyasi — bu shunchaki nutq so‘zlash qobiliyati emas, balki bolaning ruhiyatini tushunish, undagi qo‘rquv va

to‘siqlarni bartaraf etish, o‘quvchida motivatsiya hamda ijodiy fikrlashni uyg‘otish san’ati hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi nafaqat zamonaviy pedagogikaning, balki Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlarining ham doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Zero, bolaning qalbiga yo‘l topish va uni ezgulik ruhida tarbiyalash — ustozdan yuksak so‘z san’ati va pedagogik mahoratni talab etadi.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o‘zining “Baxt-saodatga erishuv haqida”gi asarida ta’lim va tarbiyaning farqini tushuntirar ekan, muloqotning kuchiga alohida to‘xtaladi. Olimning fikricha, tarbiya so‘z, amaliy ish va o‘zaro muloqot orqali insonning ruhiyatiga, xulq-atvoriga fazilatlarni singdirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars jarayonida bolaga shunchaki ma’lumot beruvchi emas, balki nutq va muloqot vositasida uning xulqini yo‘naltiruvchi asosiy shaxsdir. Agar o‘qituvchining muloqoti qo‘pol yoki buyruq ohangida bo‘lsa, bola o‘ziga qulflanadi va ta’limga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi.[3]

Ushbu fikrni ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ham quvvatlab, o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida shunday yozadi: “Tarbiyani tug‘ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandirmak, axloqimizni go‘zallandirmak lozim”.[4] Avloniy tarbiyaning eng qudratli quroli sifatida muallimning xulqi va uning o‘quvchi bilan bo‘lgan muomalasini ko‘rsatgan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi o‘qituvchining har bir so‘zini, harakatini, ovoz ohangini nusxalaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchining muloqot madaniyati o‘quvchilar uchun jonli axloq namunasidir. Shuningdek, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy so‘zning inson ruhiyatiga ta’siri va muloqot odobi haqida to‘xtalib, shunday deydi:

“So‘z – ko‘ngil kalitidir, ko‘ngul maxzanining qulfi”.[5]

Navoiyning bu o‘giti boshlang‘ich sinf pedagogikasi uchun dasturulamal desak adashmaymiz. Chunki kichik maktab yoshidagi bolaning ko‘ngli — ochilmagan maxzan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining shirin so‘zi, iliq muloqoti va e’tibori bilan o‘sha maxzanning “kaliti”ni topa olishi kerak. Bolaga nisbatan “Ustoz-shogird” emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan . “Do‘st va hamkor”munosabatini o‘rnatish orqali uning darsga bo‘lgan ishtiyoqini yuzaga chiqarish mumkin.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda o‘qituvchining muloqot madaniyati Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratadigan barkamol avlodni kamolga yetkazishning eng muhim shartidir. Kichik maktab yoshidagi bolalar dunyoni asosan his-tuyg‘ular orqali qabul qilgani sababli, ular ustozining nafaqat berayotgan bilimini, balki uning gapirish ohangi, muomalasi va insoniy fazilatlarini ham o‘ziga namuna qilib oladi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, ta’lim va tarbiya hayot-mamot masalasidir. Boshlang‘ich sinflarda ushbu vazifa o‘qituvchining har bir bola qalbiga iliq muloqot va e’tibor orqali yo‘l topishi bilan amalda namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy aytganidek, shirin so‘z va to‘g‘ri muloqot — bola ko‘nglining kalitidir. Ustoz o‘zaro muloqotda sabrli va adolatli bo‘lsagina, Abdulla Avloniy ta’riflaganidek, bolaning axloqi go‘zallashadi va darsga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi. O‘qituvchining an’anaviy buyruq ohangidan voz kechib, bolaga samimiy munosabatda bo‘lishi uning maktabga tez moslashishiga, qo‘rquvlardan xalos bo‘lishiga va mustaqil fikrlaydigan shaxs bo‘lib ulg‘ayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillari bilan o‘tkazgan tantanali uchrashuvidagi nutqi. 2026-yil 30-sentabr // Prezident Rasmiy Websayti.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // President.uz.

3. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. – Toshkent: “Ma’rifat”, 2011. – B. 45-48.

4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – B. 12-14.

5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to‘plami, 14-jild). – Toshkent: “Fan”, 1998. – B. 67.